



Abdiraimova Shaxnoza Abdugappar qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi
shakhnoza.abdiraimova@mail.ru

YOSHLAR O'RTASIDA YUZ BERAYOTGAN OILAVIY AJRALISHLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nikohdan ajralish holati batafsil tahlil qilingan bo'lib, yosh oilalarda nikohdan ajralish holatiga alohida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, O'zbekistonda 30 yoshgacha nikohdan ajrashgan er-xotinlarning yillar kesimida taqsimlanishi, 30 yoshgacha nikohdan ajralganlarning nikoh davomiyligi bo'yicha taqsimlanishi alohida tahlil qilingan. Yakuniy qismda xulosa, taklif va tavsiyalar beilgan.

Аннотация. В данной статье подробно анализируется ситуация развода, уделяя особое внимание ситуации разводов в молодых семьях. Также было проанализировано распределение разведенных пар в возрасте до 30 лет в Узбекистане по годам, а также распределение разведенных в возрасте до 30 лет по продолжительности брака. Заключительная часть содержит выводы и рекомендации.

Annotation. This article analyzes the situation of divorce in detail, focusing on the situation of divorce in young families. Also, the distribution of divorced couples under the age of 30 in Uzbekistan by years, and the distribution of those divorced under the age of 30 by the duration of marriage were analyzed. The final part contains the conclusion and recommendations.

Tayanch so'zlar: aholi, yosh oila, nikoh, ajralish, hudud, erkaklar, ayollar, er-xotinlik ittifoqi, demografik tendensiya.

Ключевые слова: население, молодая семья, брак, развод, территория, мужчины, женщины, брачный союз, демографическая тенденция.

Keywords: population, young family, marriage, divorce, area, men, women, marital union, demographic trend.

Kirish. Bugungi kunda ajralishlar global darajaga yetdi. Ushbu holat oshib borayotgani, ayniqsa, yosh oilalarda sezilarli ko'payib borayotgani barchamizni tashvishga solmoqda. Bundan nafaqat oila, balki jamiyat ham zarar ko'radi, ajralish haqiqatda juda ko'p muammolarni keltirib chiqaradi, masalan, uy-joyga bo'lgan talab oshishi, aliment tufayli oila daromadi kamayishi, salomatlik bilan bog'liq muammolar va ruhiy holatga salbiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash" haqidagi SQ-297-IV-sonli Qarorida oilani mustahkamlash, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha oilaviy ajralishlar yuzaga kelish sabablari hamda shart-sharoitlarini tahlil qilish, bu borada ilmiy, amaliy hamda fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, ijobiy urf-odatlar va an'analar asosida oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajralishlarning oldini olishda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlash kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bir qator omillarga e'tibor qaratish lozim, ya'ni oiladagi ajrimlarning oldini olishda, asosan, yosh oilalar muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik lozim.

Maqsad va uni asoslash. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-fevraldagi "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4962-son Farmoniga ko'ra, yosh oila toifasiga turmush qurganlarning yoshi 30 yoshdan oshmagan yoki bolalarni (bolani) 30 yoshdan oshmagan ota-onadan biri, shu jumladan, turmushidan ajrashgan erkak (ayol), beva (beva ayol) kishilar tarbiyalayotgan oilalar kiritiladi².

Yosh oila jamiyat bilan o'zaro murakkab munosabatlarda bo'lib, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning tasiriga uchraydi hamda o'zi ham jamiyatga tasir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-fevraldagi "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4962-son Farmoniga ko'ra, yosh oila toifasiga turmush qurganlarning yoshi 30 yoshdan oshmagan yoki bolalarni (bolani) 30 yoshdan oshmagan ota-onadan biri, shu jumladan, turmushidan ajrashgan erkak (ayol), beva (beva ayol) kishilar tarbiyalayotgan oilalar kiritiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 28 майдаги "2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш" ҳақидаги СҚ-297-IV-сонли қарори [LEX.UZ - O'zbekiston qonunchiligi](https://lex.uz)

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 Февралдаги "Ёш Оилаларни Моддий Ва Маънавий Қўллаб-Қувватлашга Доир Қўшимча Чора-Тадбирлар Тўғрисида"ги ПФ-4962-Сон Фармони [LEX.UZ - O'zbekiston qonunchiligi](https://lex.uz)

Ma'lumki, oilada er-xotinning ajralishi, ya'ni nikoh bekor qilinishi, birinchi navbatda, oilaning demografik tarkibiga ta'sir etadi. Oila to'la oiladan tugalmas oilaga aylanadi. Oilada farzandlar tug'ilishi ma'lum darajada kamayadi. Bu esa o'z navbatida, oilani davom ettiruvchi avlod yaratilishiga, oilaning demografik rivojlanishiga, ya'ni takror barpo bo'lishiga salbiy ta'sir etadi.

Oilada er-xotinning huquq va majburiyatlari yuzasidan tug'ilayotgan bahslar, turmushning darz ketishi, o'zaro mojarolar, ajralishlar bugungi kunda jamiyatimizda jiddiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oiladagi ajrimlarning oldini olishda, asosan, yoshlarni oilaviy hayot ilmiga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Yosh oilalarda ajrim holatlarini o'rganishdan asosiy maqsad bugungi kunda jamiyatimizga xavf soluvchi ajrim holatlarini kamaytirish, ajrimlarni keltirib chiqaradigan oqibatlarining oldini olish, oilalarni mustahkamlash va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun chora-tadbirlar ishlab chiqishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar berishdir.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Nikohni ro'yxatga olish kabi ajralishni rasmiylashtirish ham davlat nazorati ostida hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan qayd etilgan nikohlarning bir qismi er yoki xotinning vafoti tufayli, yana bir qismi esa o'z xohishiga ko'ra turli sabablar asosida bekor qilinadi.

Ma'lumki, oilada er-xotinning ajralishi, ya'ni nikoh bekor qilinishi, birinchi navbatda, oilaning demografik tarkibiga ta'sir etadi. Oila to'la oiladan tugalmas oilaga aylanadi. Oilada farzandlar tug'ilishi ma'lum darajada kamayadi. Bu esa o'z navbatida, oilani davom ettiruvchi avlod yaratilishiga, oilaning demografik rivojlanishiga, ya'ni takror barpo bo'lishiga salbiy ta'sir etadi³.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda Respublikamizda nikohdan ajralishlar soni keskin ortib bormoqda. 2022-yil holatiga ko'ra, mamlakatda oilalar soni 9 503 244 ta bo'lib, undan 30 yoshgacha bo'lgan yosh oilalar soni 2 886 296 tani, birgina 2022-yil oktyabr oyi yakuniga ko'ra yangi rasmiylashtirilgan nikohlar soni 214 923 tani tashkil etmoqda. 2022-yilning yanvar-oktyabr oylarida 40 200 ta oilaviy ajrimlar qayd etilgan. Oila qurganiga 5 yil to'lmagan oilalar o'rtasidagi ajrimlar esa 17 628 tani tashkil etadi.

O'tgan besh yil mobaynida (2018–2022-yillar) respublika bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni 16,4 ming kishiga yoki 50,8 foizga ortgan. Tahlil qilinayotgan davrda nikohdan ajralishlar soni respublikaning barcha hududlarida, xususan, Qashqadaryo (2,1 marta), Xorazm (2,0 marta), Farg'ona (77,4%) va Namangan (75,2%) viloyatlarida yuqori sur'atda o'sgan.

Tahlillarga ko'ra, 2022-yilda nikohdan ajralishlar soni 2021-yilga nisbatan (23,9%) yuqori sur'atda ko'paygan. Bu davrda hududlar kesimida Xorazm viloyati (41,9%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (40,9%), Namangan (38,6%) va Jizzax (34,7%) viloyatlarida eng yuqori o'sish qayd etilgan.

³ М.Р. Бўриева Ўзбекистонда оила демографияси. –Т.: Университет, 1997.

Birlamchi statistik ma'lumotlar (masalan, nikohdan ajralishlar soni) tadqiq etilayotgan demografik jarayon bo'yicha real vaziyatni aks ettirmaydi. Chunki birlamchi ma'lumotlar statistika organlari tomonidan demografik hodisalarni joriy hisobga olish orqali to'planib, unda demografik jarayonlar kechishining turli omillari va shart-sharoitlari hisobga olinmaydi. Shuning uchun demografik tahlilda ikkilamchi ma'lumotlar asosida qayta ishlangan (koeffitsiyent, indeks va h.k.) ma'lumotlardan foydalanish vaziyatga real baho berish imkonini beradi. Masalan, 2022-yil Sirdaryo viloyatida 1764 ta nikohdan ajralish holati qayd etilgan. Viloyat ajralishlar mutlaq sonining ko'pligi bo'yicha 14 ta hudud ichida 12-o'rinni egallagan.

Ikkilamchi demografik ma'lumot bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, Sirdaryo viloyatida nikohdan ajralish koeffitsiyenti 2,0 promilleni, nikohning mustahkamlik ko'rsatkichi 22,8 foizni tashkil etib, nikohdan ajralishlar soni bo'yicha 14 ta hudud ichida 2-o'rinda turadi.

Yuqoridagi qiyosiy tahlillardan ko'rinadiki, hududlardagi demografik vaziyatga real baho berish uchun ikkilamchi demografik ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xalqaro amaliyotda nikohdan ajralish darajasiga baho berishda, asosan, nikohdan ajralishning umumiy koeffitsiyenti (har 1000 aholiga to'g'ri keladigan ajralishlar soni) va nikohning mustahkamlik ko'rsatkichidan (har 100 nafar tuzilgan nikohga to'g'ri keladigan ajralishlar soni) keng foydalaniladi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, respublikada nikohdan ajralish koeffitsiyenti 2018-yildagi 1,0 promilledan 2022-yilda 1,4 promillegacha ortgan. Respublikamizda nikohdan ajralishning eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri (2,0%), Sirdaryo (2,0%) va Toshkent (1,7%) viloyatlarida qayd etilgan. Bu hududlarda nikohdan ajralishlar salmog'i yuqori bo'lishi aholining milliy tarkibi turli tumanligi bilan ham izohlanadi. Ma'lumki, shahar joylarda Yevropa xalqlarining ko'plab yashashi va ularda ajralish ko'rsatkichlari mahalliy xalqlarga nisbatan yuqori bo'lishi hammaga ma'lum. O'zbek, tojik, qirg'iz, turkman kabi musulmon millatiga mansub xalqlarda nikoh bekor qilinish hollari Yevropa xalqlariga nisbatan kamroq uchraydi. Binobarin, shu o'rinda aytish joizki, oxirgi yillarda Yevropa millatiga mansub aholi ulushi juda keskin kamayib ketdi, ularning ajralishga qo'shayotgan ulushi sezilarli darajada emas. Ming afsuslar bo'lsinki, endilikda mahalliy xalqlarda ham ajralish hodisasi tobora ko'payib bormoqda.

Aholisining 90–98 foizi mahalliy millat vakillaridan iborat, demografik o'sish yuqori bo'lgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari aholisida ajralish ko'rsatkichlari ancha past ekanligini ko'rish

Xalqaro amaliyotda nikohdan ajralish darajasiga baho berishda, asosan, nikohdan ajralishning umumiy koeffitsiyenti (har 1000 aholiga to'g'ri keladigan ajralishlar soni) va nikohning mustahkamlik ko'rsatkichidan (har 100 nafar tuzilgan nikohga to'g'ri keladigan ajralishlar soni) keng foydalaniladi.

mumkin. Aholisi, asosan, o'zbek va boshqa mahalliy millatlardan iborat bo'lgan ushbu hududlarda nikohdan ajralish hollari nisbatan kamroqligi, bir tomondan, qadriyatlarning ta'siri bo'lsa, ikkinchidan, oilalarning hamon serfarzandligi va urf-odatlariga o'ta qat'iy amal qilishidir.

So'nggi yillarda aholisi, asosan, tub mahalliy millatlardan iborat bo'lgan, diniy urf-odatlar qattiq amal qilinadigan Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari yosh oilalarida ham nikohdan ajralish holatlari keskin ortib bormoqda.

Aytish joizki, O'zbekistonda boshqa davlatlarga qaraganda nikohdan ajralish ko'rsatkichlari juda past. Masalan, aksariyat Yevropa mamlakatlari va Rossiyada nikohlarning yarmidan ortig'i ajralish bilan yakunlanadi.

Nikohdan ajralishlarning eng yuqori ulushi erkaklarda 30–34 yoshni, ayollarda esa 30 yoshgacha tashkil etadi (1-jadval). Odatda bu yoshdagi er-xotin bitta yoki ikkita farzandga ega bo'ladi.

1-jadval

O'zbekistonda 30 yoshgacha nikohdan ajrashgan er-xotinlarning yillar kesimida taqsimlanishi (%)

	2010-yil	2018-yil	2020-yil	2022-yil
Jami erkaklar	100,0	100,0	100,0	100,0
shundan				
30 yoshgacha	33,0	36,9	28,6	22,1
Jami ayollar	100,0	100,0	100,0	100,0
shundan				
30 yoshgacha	49,4	52,2	47,6	42,2

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan⁴.

Tahlil qilinayotgan davrda 30 yoshgacha bo'lgan erkaklar 2010-yilda 33%, 2018-yilda 36,9%, 2020-yilda 28,6%, 2022-yilda esa 22,1% ni tashkil qilgan. Shuningdek, 30 yoshgacha bo'lgan ayollar o'rganilganda, 2010-yilda 49,4%, 2018-yilda 52,2%, 2020-yilda 47,6%, 2022-yilga kelib 42,2% ni tashkil qilgan. Eridan ajralgan bolali ayollar yana turmush qurish imkoniyati kamligi sababli aholi orasida to'liqsiz oilalar ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Beva ayollarning nikohga qayta kirishi jami qayd etilgan nikohlarning 0,5 foizini, erkaklarniki esa 1,3 foizni tashkil etadi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Nikohdan ajralganlarning har uchtdan bittasini yosh oilalar, ya'ni 1 yilgacha, 1-4 yil oldin tuzilgan er-xotinlik ittifoqi tashkil etadi. Aholining nikohda turish davriga ko'ra ajralish ko'rsatkichi 2022-yilda 2018-yilga nisbatan quyidagicha o'zgargan: 1-4 yil orasida ajralganlar salmog'i 31,9 foizdan 29,8 foizga, 5-9 yilgacha yashaganlardan ajralishlar esa 29,8 foizdan 26,8 foizga kamaygan.

Respublika bo'yicha jami nikohdan ajrashganlarning qariyb uchdan ikki qismida (65,8%) er-xotin o'rtasida voyaga yetmagan farzandi bo'lgan.

2018-2022-yillar mobaynida farzandsiz nikohdan ajralishlar soniga qaraganda farzandli ajralishlar soni yuqori sur'atda o'sgan. O'tgan besh yilda farzandsiz nikohdan ajralishlar soni 11,2 foizni tashkil etadi.

2-jadval

**30 yoshgacha nikohdan ajralganlarning nikoh davomiyligi
bo'yicha taqsimlanishi**

Nikoh davomiyligi	Yillar					2022-yilda 2018-yilga nisbatan	
	2018	2019	2020	2021	2022	+,-	%
Jami	32 326	31 389	28 233	39 349	48 733	16 407	150,8
<i>shundan:</i>							
1 yilgacha	1 266	1 263	1 433	2 092	1 880	614	148,5
1-4 yil	10 327	10 134	9 665	12 934	14 528	4 201	140,7

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan⁵.

Farzandsiz nikohdan ajrashganlarning asosiy qismi (78%) nikohning dastlabki 10 yilgacha bo'lgan davrida qayd qilingan. Achinarlisi, statistik ma'lumotlar bu davrgacha yashab ajrashganlar soni yuqori sur'atda o'sayotganini ko'rsatadi. Jumladan, tahlil qilinayotgan davrda 1 yilgacha yashab farzandsiz nikohdan ajrashganlar soni 17,0 foizga, 1-4 yil yashab ajrashganlar 10,3 foizga, 5-9 yil yashab ajrashganlar esa 4,7 foizga o'sgan.

Shunday qilib, yuqoridagi demografik tendensiyalardan kelib chiqib, nikohdan ajralishlar soni ortayotgani, ayniqsa, yosh oilalarda ko'payib borayotgani aniqlandi, bu esa oila institutini mustahkamlash va yoshlarni nikohga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishni taqozo etadi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Nikohdan ajralish darajasi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlar sababli mamlakat hududlari bo'yicha farqlanadi. Jamiyat rivojlanishi bilan mintaqalararo tafovutlar muayyan darajada qisqarishi mumkin, bu esa o'z navbatida, hududlar yosh oilalaridagi nikohdan ajralish darajasini tenglashtirishga olib keladi.

Yakuniy qism. Olib borilgan tahlillar respublika va uning barcha hududlaridagi yosh oilalarda nikohdan ajralishlar soni yil sayin ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, nikohdan ajralishning eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida qayd etilgan.

Nikohdan ajralish darajasi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlar sababli mamlakat hududlari bo'yicha farqlanadi. Jamiyat rivojlanishi bilan mintaqalararo tafovutlar muayyan darajada qisqarishi mumkin, bu esa o'z navbatida, hududlar yosh oilalaridagi nikohdan ajralish darajasini tenglashtirishga olib keladi.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda nikohdan ajralishning eng yuqori ulushi erkaklarda 30–34 yoshni, ayollarda esa 30 yoshgachani tashkil etadi.

Nikohdan ajrashganlarning har uchtdan bittasi yoshlar oilalar, ya'ni 1 yilgacha, 1–4 yil oldin tuzilgan er-xotinlik ittifoqi tashkil etadi.

Taklif va tavsiyalar

1. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim, jumladan,

- ajrashish to'g'risida ariza bergan yosh oilalarga yarashish uchun beriladigan muddatini uzaytirish va bir yil alohida yashash institutini joriy etish;
- aliment majburiyatlari bilan bog'liq normalarni qayta ko'rib chiqish (miqdorini ko'paytirish);
- “shaxsiy oilaviy hayot”, “uchinchi shaxslar”, “oilaviy hayotga aralashuv” tushunchalarining aniq mezonlarini belgilash;
- nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar, xususan, yon shajara bo'yicha yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzishga oid aniq normalarni kiritish;
- nikohni tugatish hamda nikohdan ajratish asoslarini aniq belgilash;
- farzandlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normalarga qo'shimchalar kiritish;
- er va xotinning mulkiy huquqlariga oid qoidalarni takomillashtirish;
- farzandlikka olish instituti bilan bog'liq normalarni takomillashtirish yuzasidan o'zgartirish kiritish.

2. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh oilalarda nikohdan ajralish ko'rsatkichida yuqori sur'atda o'sayotganini inobatga olib, oliy o'quv muassasalari 1- va 2-kurslari ish rejasiga “mustahkam oila asoslari” mavzusidagi darslarni kiritish. Mazkur darslar doirasida “Oila psixologiyasi”, “Oilaning diniy-axloqiy asoslari”, “Oila iqtisodiyoti”,

“Oilaviy huquqiy munosabatlar”, “Reproduktiv salomatlik” va “Farzand parvarishi va tarbiyasi” kabi mavzularini o‘qitish.

3. Oilaviy nizolarga duch kelgan yosh oilalarda uning yechimini topish uchun bepul malakali xizmatlarni (psixolog, huquqshunos va diniy ilmga ega bo‘lgan mutaxassislar mavjud onlayn konsultatsiya va 24 soat xizmat ko‘rsatadigan “Qo‘ng‘iroq” (*Call centre*) tashkil etish.

4. Nikohdan ajralishlar profilaktikasi uchun maqsadga yo‘naltirilgan kompleks tadbirlarni (psixologik ta‘lim, yoshlarning nikoh-oila ustanovkalaridagi muammoli nuqtalar asosida nikoholdi maslahatlar berish, yosh oilalarni psixologik kuzatib borish) tizimli tarzda o‘tkazish. Bu profilaktik ishlar o‘spirinlar, yoshlar va ularning ota-onalariga, shuningdek, yolg‘iz, turmush qurmoqchi bo‘lgan va turmush qurgan yoshlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tizimli ravishda amalga oshirilsa, oilalardagi ajralishlar kamayishiga yordam beradi.

5. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kurslari uchun elektron darslik tayyorlash lozim. Ushbu elektron darslikda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun ma‘ruzalar, taqdimotlar, mutaxassislar maslahatlari, videoroliklar, qiziqarli savol-javoblar, testlar va boshqa vazifalar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 февралдаги “Ёш oilalarni moddiy va ma‘naviy qўllab-quvvatlashga doir qўshimcha chora-tadbirlar tўg‘risida”gi ПФ-4962-сон Фармони [LEX.UZ - O‘zbekiston qonunchiligi](http://LEX.UZ)
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 28 майдаги “2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиqlаш” ҳақидаги СҚ-297-IV-сонли қарори [LEX.UZ - O‘zbekiston qonunchiligi](http://LEX.UZ)
3. [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi](http://LEX.UZ)
4. Абдурахмонов Қ.Х., Абдураманов Х.Х. ва бошқалар. Демография. Дарслик. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2014. – 188 б.
5. Бўриева М.Р. Ўзбекистонда oila демографияси. –Т.: Университет, 1997. – 157 б.
6. Тожиёва З.Н. Статистиканинг умумий назарияси. – Т., 2000. – 58 б.